

NOTO‘LIQ OILADAGI ONA VA FARZANDLAR O‘RTASIDA NAMOYON BO‘LADIGAN IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNING ILMIY TALQINI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-450-452>

Rustamova Mo‘tabar Ravshanovna

*Alfraganus universiteti, “Psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi,
e-mail: rustamova.motabar@bk.ru*

Annotatsiya. Mazkur tezisdá noto‘liq oiladagi ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, unda xorij olimlari fikrlari asosida ona va farzand o‘rtasidagi kuchli emotsional bog‘lanish, simbiotik yaqinlik, ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklar hamda farzandda mustaqillikka intilish hissinin rivojlanishi muammolari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: noto‘liq oila, ona va farzand munosabatlari, emotsional bog‘lanish, psixologik rivojlanish, onalik ijtimoiy roli.

Аннотация. В данной работе анализируются социально-психологические особенности взаимоотношений матери и ребенка в дисфункциональной семье. Одновременно, на основе идей зарубежных ученых, освещаются проблемы сильной эмоциональной привязанности между матерью и ребенком, симбиотической близости, социально-психологических трудностей и развития чувства независимости у ребенка.

Ключевые слова: дисфункциональная семья, взаимоотношения матери и ребенка, эмоциональная привязанность, психологическое развитие, социальная роль материнства.

Abstract. This thesis analyzes the socio-psychological characteristics of the relationship between mother and child in a dysfunctional family. At the same time, it highlights the problems of strong emotional attachment between mother and child, symbiotic closeness, social and psychological difficulties, and the development of a sense of independence in a child, based on the ideas of foreign scientists.

Keywords: dysfunctional family, mother-child relationship, emotional attachment, psychological development, social role of motherhood.

KIRISH

Oilaviy munosabatlar shaxs rivojlanishining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, noto‘liq oilalarda tarbiya jarayoni va shaxslararo munosabatlar o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu holat ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Noto‘liq oilada farzand tarbiyasining asosan ona zimmasiga tushishi ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning mazmuni, shakli va intensivligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Noto‘liq oilada ona bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy rollarni bajarishga majbur bo‘ladi. U nafaqat tarbiyachi va emotsional tayanch, balki iqtisodiy ta’minotchi sifatida ham faoliyat yuritadi. Bu holat onaning psixologik holatida doimiy zo‘riqish, charchoq va xavotir darajasining oshishiga olib keladi. Natijada ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarda emotsional beqarorlik, ba’zan esa

haddan tashqari qaramlik kuzatiladi. Ona farzandni yo‘qotishdan qo‘rqib, unga nisbatan ortiqcha nazorat va himoyalovchi munosabat namoyon qilishi mumkin.

Asosiy qism. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, noto‘liq oilalarda ona va farzand o‘rtasida kuchli emotsional bog‘liqlik shakllanadi. Bu bog‘liqlik ijobiy jihatdan ishonch va yaqinlikni ta‘minlasa-da, ayrim holatlarda simbiotik munosabatga aylanib, farzandning mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Farzand onaning ruhiy holatiga haddan tashqari bog‘lanib qoladi, bu esa uning ijtimoiy moslashuvi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini cheklashi mumkin.

Psixoanalitik yo‘nalish vakili Z.Freyd oiladagi ota va ona rollarining shaxs psixoseksual rivojlanishidagi ahamiyatini ta‘kidlab, ota obrazining yo‘qligi bolaning ichki psixik muvozanatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini qayd etgan. Freydda ko‘ra, ota shaxsiy chegaralarni belgilovchi va ijtimoiy me‘yorlarni uzatuvchi muhim figuradir [3]. Uning yo‘qligi bolaning ijtimoiy qoidalarni o‘zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi, natijada ona bilan munosabatlar haddan tashqari emotsional tus olishi mumkin.

J.Boulbi tomonidan ishlab chiqilgan bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning birlamchi parvarishlovchi shaxs bilan emotsional aloqasi uning keyingi hayotdagi shaxslararo munosabatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [2]. Noto‘liq oilalarda ona asosiy bog‘lanish figurasi bo‘lib, bolaning barcha emotsional ehtiyojlari aynan ona orqali qondiriladi. Boulbi ta‘kidlaganidek, agar ona psixologik zo‘riqish holatida bo‘lsa, bu bolaning xavfsiz bog‘lanish turining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Amerikalik psixolog D.Baumrind ota-onalik uslublarini tahlil qilar ekan, noto‘liq oilalarda avtoritar yoki haddan tashqari himoyalovchi tarbiya uslubi ko‘proq uchrashini qayd etadi. Onaning yolg‘iz tarbiyachi sifatidagi mas‘uliyati ortishi natijasida u farzand ustidan kuchli nazorat o‘rnatishga moyil bo‘ladi. Bu esa farzandda mustaqillikning sust rivojlanishi va tashabbussizlikka olib kelishi mumkin [1].

MDH olimlaridan A.Y.Varga va V.V.Stolin oilaviy munosabatlar diagnostikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida noto‘liq oilalarda “ona–farzand simbiozi” fenomeni keng tarqalganligini ta‘kidlaydilar [4]. Ularning fikricha, bunday simbiotik munosabatlar bir tomondan emotsional yaqinlikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan bolaning shaxsiy chegaralarini shakllantirish jarayonini sekinlashtiradi. Natijada farzand onaning psixologik holatiga qaram bo‘lib qoladi.

L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit orqali amalga oshadi [5]. Noto‘liq oilada ijtimoiy muhitning cheklanganligi va ota obrazining yetishmasligi bolaning ijtimoiy tajribasini toraytiradi. Vigotskiy ta‘kidlagan “yaqin rivojlanish zonasi”ning to‘liq amalga oshishi uchun turli ijtimoiy rollar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, noto‘liq oilalarda bu jarayon asosan ona shaxsi bilan chegaralanib qoladi.

R.S.Nemov va E.G.Eydemiller tadqiqotlarida noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda emotsional beqarorlik, tashvishlilik va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari nisbatan yuqori ekanligi qayd etilgan [6]. Ularning

fikricha, onaning doimiy psixologik va ijtimoiy bosim ostida bo‘lishi ona–farzand munosabatlarining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim olimlar, jumladan, E.Erikson rivojlanish jarayonida inqirozlarning mavjudligi shaxs kamolotida ijobiy rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Noto‘liq oilada ulg‘aygan farzandlarda mas’uliyat, mustaqillik va ijtimoiy yetuklikning erta shakllanishi mumkinligi ham ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, olimlar qarashlari shuni ko‘rsatadiki, noto‘liq oiladagi ona va farzand munosabatlari kuchli emotsional yaqinlik, rol disbalansi va ijtimoiy bosimlar bilan tavsiflanadi. Ushbu munosabatlarning rivojlanish xarakteri onaning psixologik barqarorligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi va tarbiya uslubiga bog‘liq bo‘lib, ilmiy asoslangan psixologik yondashuvlar orqali salbiy oqibatlarni kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baumrind D. Child Care Practices Antecedent Three Patterns of Preschool Behavior. Genetic Psychology Monographs. 1967. Vol. 75, No. 1. P. 43–88.
2. Bowlby J. Attachment and Loss. London: Hogarth Press, 1969. P. 1–45.
3. Freud Z. The Ego and the Id. New York: W.W. Norton & Company, 1961. P. 23–78.
4. Варга А.Я., Столин В.В. Психология семьи и семейные отношения. Москва: Просвещение, 2003. С. 34–98.
5. Виготский Л.С. Мышление и речь. Москва: Педагогика, 1982. С. 56–120.
6. Немов Р.С., Эйдемиллер Е.Г. Психология детей и подростков. Москва: Академия, 2005. С. 77–132.